O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASHDA ISHONCHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xayitmurodov Ilxom Xolturaevich
Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi ma’sul xodim

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda ishonch fenomeni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shunindek, maqolada ishonch ijtimoiy kapitalning muhim elementi sifatida ko‘rib chiqilib, uning milliy, madaniy va institutsional xususiyatlari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy munosabatlar, ishonch, ijtimoiy kapital, institutsional ishonch, mahalla, barqarorlik.

Globallashuv sharoitida har qanday jamiyatda xavfsizligi va barqarorligini ta’minlashda ijtimoiy munosabatlarning mustahkamlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Albatta, bu jarayonda ishonch muhim ijtimoiy-psixologik va institutsional omil sifatida namoyon bo‘lishini teran anglash borasida jiddiy fikrlarshni taqoza etmoqda. Shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda ham keyingi yillarda jamiyatda ishonchni kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Shu o‘rinda, ishonch tushunchasi va uning nazariy asoslari haqida fikr yurtish muhim ahamiyat kasb etadi. Qayd etish lozimki, ishonch – bu shaxslar, guruhlar va institutlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchli munosabatlarni ifoda etuvchi ijtimoiy kategoriya ekanligini teran anglash lozim. U ijtimoiy kapitalning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, jamiyatda hamkorlik va barqarorlikni ta’minlaydi. Qayd etish lozimki, ilmiy adabiyotlarda ishonch quyidagi turlarga bo‘linadi:

shaxsiy (individual) ishonch;
institutsional ishonch;
umumiy (ijtimoiy) ishonchga bo‘linadi.

O‘zbekistonda ishonchning o‘ziga xos xususiyatlari fikr yuritganda u quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Jumladan:

1. Milliy qadriyatlarga asoslanganlik. Ya’ni, O‘zbekiston jamiyatida ishonch an’anaviy qadriyatlar – mehr-oqibat, hurmat, kattalarga ehtirom, qo‘shnichilik munosabatlari asosida shakllangan. Bu omil ijtimoiy munosabatlarni tabiiy ravishda mustahkamlashga zamin yaratgan.
2. Oila va mahalla institutining roli. Oila va mahalla O‘zbekistonda ishonchni shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institutlar hisoblanadi. Mahalla tizimi orqali aholi o‘rtasida o‘zaro yordam, hamjihatlik va ishonch mustahkamlanadi.
3. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch. Keyingi islohotlar natijasida davlat organlariga bo‘lgan ishonch tobora oshmoqda. Ayniqsa, bu borada, ochiqlik, shaffoflik va aholi bilan muloqot tizimining rivojlanishi bu jarayonga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

4. Diniy va ma’naviy omillar ta’siri. Islom dini va milliy ma’naviyat ishonchni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Halollik, adolat va insof kabi qadriyatlar ijtimoiy munosabatlarda ishonchni oshirishga tobora xizmat qilmoqda. Shu o‘rinda, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda ishonchning ahamiyati haqida fikr yuritganda, ishonch bo‘lgan munosabat eng avvalo, u ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi, iqtisodiy munosabatlarni rivojlantiradi, jamoaviy faollikni oshiradi, nizolarni kamaytiradi, fuqarolik jamiyati institutlarini kuchaytirishga zamin yaratadi. Shu o‘rinda, qayd etish joizki, bu borada muammolar va yechimlar haqida fikr yuritganda, ayrim hollarda jamiyatda ishonch darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ham mavjud ekanligini ta’kidlash lozim. Bu borada, korrupsiya, axborot manbalarining ishonchsizligi, ijtimoiy tengsizlik kabi holatlar namoyon bo‘lgan.Bunda ularni bartaraf etish uchun eng avallo, huquqiy madaniyatni oshirish, shaffof boshqaruvni ta’minlash, ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish, ommaviy axborot vositalari faoliyatini kuchaytirish zarur ekanligi tobora oydinlashtirmoqda. Bugungi

kunga kelib ham inson manfaatlari muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Shu o‘rinda, XXI asr voqeligi iqtisodiy yuksalish va inson taraqqiyoti o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatmoqda. Inson uchun sarflanadigan investitsiyalar, avvalo, inson uchundir. O‘ziga to‘q, sog‘lom, yaxshi ta’lim olgan va malakali inson iqtisodiy yuksalish yo‘lida bir vaqtning o‘zida ham asosiy ishlab chiqarish kuchi, ham inson kapitalining maqsadi hisoblanadi. O‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “ijtimoiy davlat” tushunchasi ilk bor 1850 yilda Lorens fon Shteyn tomonidan qo‘llanilgan. U davlatning vazifasi ijtimoiy tenglik va shaxsiy erkinlikni o‘rnatish, quyi va kam ta’minlangan tabaqalarni boylar va qudratlilar darajasiga ko‘tarishdan iborat, deb hisoblagan. Milliy davlatchiligimiz tarixini o‘rganganimizda ham “ijtimoiy davlat” tushunchasi shunga o‘xshash nomlarda ko‘plab uchrashiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, IX-X asrlarda yashab ijod qilgan Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida fozil shahar haqida bildirilgan fikrlar aynan “ijtimoiy davlat” tamoyilining mazmun-mohiyati ochib berishga xizmat qiladi. Shunga o‘xshash fikrlarni Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Ahmad Donish kabi buyuk ajdodlarimiz asarlarida ham uchratish mumkin. Shuni alohida qayd etish joizki, O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda ishonch hal qiluvchi omil hisoblanadi. U milliy qadriyatlar, ijtimoiy institutlar va davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Ishonchni yanada rivojlantirish jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi global transformatsiya jarayonlarida jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti ijtimoiy munosabatlarning sifat darajasiga bog‘liq. Ishonch esa mazkur munosabatlarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, ishonch darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish samarali kechadi. O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda ishonch hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. U jamiyat barqarorligi, iqtisodiy rivojlanish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Milliy qadriyatlar, mahalla instituti va davlat siyosatining uyg‘unligi ishonchni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda ishonch hal qiluvchi omil hisoblanadi. Uni rivojlantirish davlat siyosati, fuqarolik jamiyati va milliy qadriyatlarning uyg‘unligi orqali amalga oshirilishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Fukuyama F. Ishonch: ijtimoiy fazilatlar va farovonlik.
2.Patnem R. Ijtimoiy kapital nazariyasi.
3.O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari.